

“70730103 - Arxitektura tarixi va nazariyasi” mutaxassisligi

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70730103 - Arxitektura tarixi va nazariyasi
magistratura mutaxassisligining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2024

O‘ZR OTFIV
Buyruq № 277
2024 yil “ 01 ” 08

ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti.
- O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “ 01 ” 08 dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | | bet |
|------------|---|------------|
| 1. | Umumiy tasnifi..... | 4 |
| 1.1. | Qo‘llanish sohasi..... | 4 |
| 1.1.1. | Malaka talabining qo‘llanilishi..... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari..... | 4 |
| 1.2. | Kasbiy faoliyatlari tavsifi..... | 4 |
| 1.2.1. | Kasbiy faoliyatining sohalari..... | 4 |
| 1.2.2. | Kasbiy faoliyatlarining obyektlari | 5 |
| 1.2.3. | Kasbiy faoliyatlarining turlari | 5 |
| 1.2.4. | Kasbiy vazifalari | 5 |
| 2. | Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar..... | 6 |
| 3. | Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar..... | 8 |
| 4. | Fanlar katalogining tuzilishi..... | 8 |
| | Bibliografik ma’lumotlar | 9 |
| | Kelishuv varag‘i..... | 10 |

1. Umumiy tavsifi

70730103 - Arxitektura tarixi va nazariyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70730103 - Arxitektura tarixi va nazariyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalvriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70730103 - Arxitektura tarixi va nazariyasi – arxitektura va qurilish sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik institutida, O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, va boshqarmaning joylardagi filiallarida; arxeologiya institutlarida; turizmga oid muassasalarda; joylardagi loyihalash institutlari va xususiy tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash ustaxonalarida kompleks masalalarni yechish, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlari va sohasini rivojlantirishda tarixiy shaharlar va yodgorliklarning o'rnini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga,

mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

tarixiy shaharlar va mahallalar;

arxeologiyaga oid yodgorliklar;

me'moriy yodgorliklar;

bog'-park san'atining tarixiy obyektlari;

aholi yashash punktlarida joylashgan qadimgi imoratlar;

tarixiy majmualar va muqaddas qadamjolar;

yodgorliklarda ishlatilgan qurilish materiallari, konstruksiyalari, bezaklar va ularning tarkibiy tuzilishi;

obidalarni o'lchashda va o'rganishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar.

arxitektura va qurilish sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

ilmiy tadqiqot faoliyati;

pedagogik faoliyat;

loyihaviy-konstruktorlik faoliyati;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. Kasbiy vazifalari:

70730103 - Arxitektura tarixi va nazariyasi mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda

faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogiya texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv- metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

tarixiy shaharlar, majmualar, yodgorliklarni ta'mirlashi va tiklashi, ularni hozirgi zamon talablariga moslashtirish loyihalarini bajarishi;

arxitekturaviy yodgorliklarning konstruktiv yechimlarini tadqiq qilishi;

loyihaviy hujjatlarni ishlab chiqishi.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

ta'mirlash jarayonlarini rejalashtirish, smeta hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, arxitektura va qurilish sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

arxitektura-ta'mirlash va qurilish sohasida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqish hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

mutaxassislik bo'yicha arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklash sohasida mavjud holatning analitik sharhini ishlab chiqishi;

arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklashga oid loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashishi;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi,

umummetodologik fanlar asosi, arxitektura va restavratsiya sohasidagi muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji, xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tarixiy shaharlar, majmualar, yodgorliklarni tiklash va ularni hozirgi zamon talablariga moslashtirish loyihalarini ishlab chiqish malakalariga ega bo'lishi;

arxitekturaviy yodgorliklarning konstruktiv yechimlarini va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish; mutaxassislik bo'yicha arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini tiklash sohasida mavjud holatning analitik sharhini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|-------------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|----------|
| 1.00 | | Umumiy Majburiy fanlar | 1560 | | |
| 1.01 | ITM1104 | Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | MFO'M1104 | Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | O'AYo1104 | O'zbekiston arxitektura yodgorliklari | 120 | 4 | 1 |
| 1.04 | O'TSH1112 | O'zbekiston tarixiy shaharlarining genezisi va transformatsiyasi | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.05 | AYoT1112 | Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va ulardan foydalanish | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.06 | ASHUB1204 | Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish va bezash | 180 | 6 | 2 |
| 1.07 | RIXT2104 | Restavratsiyada innovatsiyalar: xorij tajribasi | 120 | 4 | 3 |
| 1.08 | MG1108 | Eng yangi arxitektura | 180 | 6 | 2 |
| 1.09 | RIXT2109 | Muqarnas va girix | 120 | 4 | 2 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 240 | 8 | 3 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 240 | 8 | 3 |
| | | Jami | 1800 | 60 | |
| 3.00 | | Ilmiy faoliyat | 1800 | 60 | |
| 3.01 | ITIMDT3130 | Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash | 900 | 30 | 1,2,3,4 |
| 3.02 | IPI3112 | Ilmiy-pedagogik ish | 480 | 16 | 1,2,3 |
| 3.03 | IA(S)3418 | Ilmiy amaliyot (stajirovka) | 420 | 14 | 4 |
| | | Jami: | 3600 | 120 | |
| | Kvalifikatsiya | Muhandis-arxitektor-restavrator, pedagog-tadqiqotch | | | |
| | | HAMMASI | 3600 | 120 | |

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:



Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Rektor  B.A. Tulaganov

2024 yil « _____ » _____

M.O'.




O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi


Direktor  B.G. Abdikarimov

2024 yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktori  M. Boltabayev




2024 yil « _____ » _____

M.O'.

Kasbiy faoliyatni rivojlantirish markazi



O'zbekiston Respublikasi FA
San'atshunoslik instituti
Direktori  Sh.R. Pidaev

2024 yil « _____ » _____

M.O'.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Direktor  I.K. Giyasov



2024 yil « _____ » _____

M.O'.



Rektori  A.M. Reymov

2024 yil « _____ » _____

M.O'.